Irgasheva Gulbahor	
Davlat vositalari yordamida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish yo'nalishlari	836
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....	842
Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Difuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijjon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	



YASHIL ENERGITIKANI INTEGRATSIYA QILISH VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULI (AQLLI TARMOQLAR- SMART GRIDS)



Karimova Salima Elamonovna

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

salimakarimova456@gmail.com

ORCID: 009-0004-5057-005X

Annotatsiya: Ushbu maqola yashil energetikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli sifatida aqlli tarmoqlarning (Smart Grids) roli va ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada aqlli tarmoqlarning asosiy elementlari, funksiyalari, yashil energetika manbalarini integratsiya qilishdagi o'rni, energiya samaradorligini oshirishdagi hissasi hamda O'zbekistonda ushbu texnologiyalarni joriy etish istiqbollari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aqlli tarmoqlar energiya tizimini optimallashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va energiya yo'qotishlarini kamaytirish orqali energiya sohasida barqaror rivojlanishga erishishda muhim rol o'ynaydi. Maqola O'zbekiston sharoitida aqlli tarmoqlarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tegishli tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: aqlli tarmoqlar, yashil energetika, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya tizimi, integratsiya, texnologiya.

Abstract: This article is devoted to the role and importance of smart grids as a modern way to integrate green energy and increase energy efficiency. The article analyzes the main elements, functions of smart grids, their role in integrating green energy sources, their contribution to increasing energy efficiency, and the prospects for introducing these technologies in Uzbekistan from a scientific point of view. The results of the study show that smart grids play an important role in achieving sustainable development in the energy sector by optimizing the energy system, expanding the use of renewable energy sources, and reducing energy losses. The article is aimed at developing relevant recommendations, taking into account the specific features of introducing smart grids in the conditions of Uzbekistan.

Key words: smart grids, green energy, energy efficiency, renewable energy sources, energy system, integration, technology.

Аннотация: Статья посвящена роли и значению интеллектуальных сетей как современного способа интеграции зеленой энергетики и повышения энергоэффективности. В статье анализируются основные элементы, функции интеллектуальных сетей, их роль в интеграции зеленых источников энергии, их вклад в повышение энергоэффективности, а также перспективы внедрения этих технологий в Узбекистане с научной точки зрения. Результаты исследования показывают, что интеллектуальные сети играют важную роль в достижении устойчивого развития в энергетическом секторе за счет оптимизации энергосистемы, расширения использования возобновляемых источников энергии и снижения потерь энергии. Статья направлена на разработку соответствующих рекомендаций с учетом особенностей внедрения интеллектуальных сетей в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: интеллектуальные сети, зеленая энергетика, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии, энергосистема, интеграция, технология.



KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishi, energiya resurslarining cheklanganligi kabi global muammolar girdobida qolmoqda. Ushbu muammolarni hal etishning asosiy yo'llaridan biri – yashil energetikani rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirishdir. An'anaviy energiya tizimlari o'zining kamchiliklari bilan ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirishga qodir emas. Shunday sharoitda "aqlli tarmoqlar" (Smart Grids) konsepsiyasi zamonaviy energetika sohasining muhim yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Aqlli tarmoqlar – bu energiya ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan, zamonaviy raqamli texnologiyalar, telekommunikatsiya va avtomatlashtirish tizimlaridan iborat bo'lgan yaxlit majmuadir. Aqlli tarmoqlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol, gidroenergetika) energiya tizimiga samarali integratsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, tarmoqning ishonchligini ta'minlash va iste'molchilarga yangi xizmatlar taklif etish imkoniyatini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil energiya manbalarini energetika tizimlariga integratsiya qilish masalasi so'nggi o'n yilliklarda global miqyosda ilmiy va amaliy e'tiborni tortib kelmoqda. Bu yo'nalishda aqlli tarmoqlar (smart grids) konsepsiyasi markaziy o'rinni egallab, energiya samaradorligini oshirishning ilg'or yechimi sifatida qaralmoqda. John A. Peças Lopes tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aqlli tarmoqlarning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini muvozanatli boshqarishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. U elektr tarmoqlarining ishonchligini saqlab qolish uchun o'zgaruvchan manbalarni real vaqt rejimida boshqarish zarurligini asoslab bergan.

Bundan tashqari, Massoud Amin va Bruce F. Wollenberg energiya infratuzilmasini raqamlashtirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkinligini isbotlab, aqlli tarmoqlar orqali energiya oqimini avtomatik boshqarish va tarmoqdagi nosozliklarga tezkor javob berish imkonini ko'rsatgan. Ularning fikricha, aqlli o'lchagichlar va sensorlar yordamida iste'molni aniq bashorat qilish orqali energiya ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanatni samarali boshqarish mumkin.

Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilgan "SmartGrids European Technology Platform" tashabbusi esa, bu boradagi ilmiy va siyosiy yondashuvlar uyg'unligini ko'rsatadi. Mazkur platforma doirasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va yo'l xaritalari yashil energiyaning elektr tarmoqlariga integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan. Ular ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning xulq-atvorini o'zgartirish ham energiya tejashda muhim omil hisoblanadi.

Xitoylik tadqiqotchi Chen Chen boshchiligidagi guruh tomonidan olib borilgan tahlillarda esa quyosh va shamol kabi o'zgaruvchan manbalarning energiya tizimidagi barqarorligi energiya saqlash texnologiyalarining samaradorligiga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotlarda aqlli tarmoqlar orqali energiya zaxiralash tizimlarini avtomatik tartibda ishga tushirish va muvozanatni ta'minlash usullari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, IEA (International Energy Agency) tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham aqlli tarmoqlarni rivojlantirish, energiya samaradorligi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Hisobotda smart grid texnologiyalari yordamida global energiya isrofgarchiligining 10-15 foizgacha kamayishi mumkinligi qayd etilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar zamonaviy aqlli tarmoqlarning nafaqat texnologik innovatsiya sifatida, balki ekologik barqarorlik va energiya xavfsizligini ta'minlovchi vosita sifatidagi o'rni tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Energiya ishlab chiqarishdan tortib, iste'molgacha bo'lgan zanjirda raqamli boshqaruv, bashoratlash modellari va foydalanuvchi faolligi asosiy determinatorlar sifatida ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va amaliy loyihalar tajribasi asosida to'plandi. Analitik yondashuv orqali mavjud yechimlar solishtirilib, aqlli tarmoqlar yordamida energiya samaradorligini oshirishning samarali modellari aniqlab olindi hamda statistik tahlil va kontent tahlili metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aqlli tarmoqlarning mohiyati, asosiy elementlari va funksiyalari, yashil energetikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishdagi roli hamda O'zbekistonda ushbu texnologiyalarni joriy etish istiqbollari bag'ishlangan. Maqolada, shuningdek, aqlli tarmoqlarni joriy etishning texnik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari ham tahlil etiladi. Maqsad – aqlli tarmoqlarning energetika sohasidagi ahamiyatini ochib berish va O'zbekistonning barqaror energetika tizimini yaratishga hissa qo'shishdan iboratdir. [1]




Aqlli tarmoqlarning asosiy elementlari, funksiyalari va kompozitsion tahlillari ko'rib chiqiladi. Aqlli tarmoqlar (Smart Grids) zamonaviy energetika tizimining asosi bo'lib, energiya ishlab chiqarishdan iste'molgacha bo'lgan jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan. Ushbu murakkab tizim turli elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funksiyani bajaradi va umumiy maqsadga xizmat qiladi – energiya samaradorligini oshirish va yashil energetikani integratsiya qilish.

1. Asosiy elementlar: Infratuzilmaning tarkibiy qismlari Aqlli hisoblagichlar (Smart Meters). Funksiyasi: iste'molchilarning energiya sarfini real vaqt rejimida o'lchash, ma'lumotlarni tarmoqqa uzatish va ikki tomonlama aloqani ta'minlash. Kompozitsion ahamiyati: aqlli tarmoqning "ko'zlari va quloqlari" bo'lib, iste'molchilarning energiya iste'moli haqida aniq ma'lumot beradi va tarmoqni boshqarish uchun asos bo'ladi.

Sensorlar va monitoring tizimlari. Funksiyasi: tarmoqning holatini (voltage, tok, harorat va boshqalar) kuzatish, nosozliklarni aniqlash va tarmoqning ishlashini optimallashtirish. Kompozitsion ahamiyati: tarmoqning "nerv tizimi" bo'lib, tarmoqning sog'lig'i haqida real vaqtda ma'lumot beradi va nosozliklarni oldindan aniqlash imkonini yaratadi. [2]

Avtomatlashtirish tizimlari. Funksiyasi: tarmoqning ishlashini avtomatik ravishda boshqarish, nosozliklarni bartaraf etish, energiya oqimini optimallashtirish va tarmoqning barqarorligini ta'minlash. Kompozitsion ahamiyati: tarmoqning "miyasi" bo'lib, u tarmoqning ishlashini optimallashtirish uchun qarorlar qabul qiladi va avtomatik ravishda harakat qiladi.

Aloqa tizimlari. Funksiyasi: tarmoq elementlari o'rtasida (aqlli hisoblagichlar, sensorlar, avtomatlashtirish tizimlari va boshqalar) ma'lumot almashishni ta'minlash. Kompozitsion ahamiyati: tarmoq elementlarini bog'lovchi "aloqa kanallari" bo'lib, ma'lumotlarning uzluksiz va tezkor almashinuvini ta'minlaydi (1-rasm). [3]



1-rasm. Smart Grids texnologiyasining integratsiyalashuv sestemasi.

Dasturiy ta'minot va analitik tizimlar. Funksiyasi quyidagicha: katta hajmdagi ma'lumotlarni (big data) tahlil qilish, bashorat qilish, tarmoqning ishlashini optimallashtirish va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash. Kompozitsion ahamiyati – tarmoqning "intellekti" bo'lib, ma'lumotlarni bilimga aylantiradi va tarmoqning ishlashini yaxshilash uchun tavsiyalar beradi.

Asosiy funksiyalar. Energiya tizimining ishlashini yaxshilash, energiya ishlab chiqarishni optimallashtirish, yashil energetika manbalarining (quyosh, shamol) o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda energiya ishlab chiqarishni talabga moslashtirish. Kompozitsion ahamiyati: energiya ta'minotining barqarorligini ta'minlash va yashil energetikadan samarali foydalanish imkonini beradi. [4]

Energiya uzatish va taqsimlashni optimallashtirish. Tarmoqdagi yuklamalarni muvozanatlash, energiya yo'qotishlarini kamaytirish va tarmoqning ishonchligini oshirish. Kompozitsion ahamiyati quyidagicha: energiya resurslaridan oqilona foydalanish va iste'molchilarga sifatli energiya yetkazib berishni ta'minlaydi.

Talabni boshqarish (Demand Response). Iste'molchilarning energiya iste'molini narx signallari yoki boshqa rag'batlantiruvchi omillar orqali o'zgartirish, tarmoqdagi yuklamani kamaytirish va energiya resurslaridan



samarali foydalanish. Bu tarmoqning barqarorligini ta'minlash va energiya resurslariga bo'lgan talabni kamaytirish imkonini beradi. [5]

Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish. Tarmoqdagi nosozliklarni tezda aniqlash va bartaraf etish, energiya ta'minotining uzluksizligini ta'minlash. Iste'molchilarni energiya bilan ta'minlashda uzilishlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega. Aqlli tarmoqlar murakkab, ammo yaxlit tizim bo'lib, uning har bir elementi va funksiyasi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Aqlli tarmoqlarni joriy etish energiya sohasida inqilobiy o'zgarishlar olib keladi, energiya samaradorligini oshiradi, yashil energetikani integratsiya qiladi va barqaror kelajakni ta'minlashga yordam beradi.

Yashil energetikani integratsiya qilishda aqlli tarmoqlarning roli va zamonaviy energetika inqilobining asosi. XXI asr – energetika sohasida inqilobiy o'zgarishlar davri bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi, energiya resurslarining cheklanganligi va atrof-muhitni muhofaza qilish zarurati yashil energetikaga o'tishni jadallashtirmoqda. [6] Biroq, quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energiya tizimiga integratsiyasi bir qator texnik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Aynan shu yerda aqlli tarmoqlar (Smart Grids) yechim sifatida paydo bo'ladi va yashil energetikani integratsiya qilishning kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Aqlli tarmoqlar – bu zamonaviy raqamli texnologiyalar, telekommunikatsiya va avtomatlashtirish tizimlaridan iborat bo'lgan energetika infratuzilmasidir. Ular energiya ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilishni optimallashtirishga qaratilgan. Aqlli tarmoqlarning asosiy maqsadi – energiya tizimini yanada samarali, ishonchli, xavfsiz va barqaror qilishdir.

Yashil energetikani integratsiya qilishda aqlli tarmoqlarning roli quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

O'zgaruvchanlikni boshqarish. Quyosh va shamol energetikasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari ob-havo sharoitiga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish hajmi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Aqlli tarmoqlar energiya saqlash tizimlari, talabni boshqarish (Demand Response) dasturlari va ilg'or bashoratlash texnologiyalari yordamida ushbu o'zgaruvchanlikni muvaffaqiyatli boshqaradi. [7] Masalan, quyoshli kunlarda ortiqcha energiya saqlanib, bulutli kunlarda tarmoqqa uzatiladi.

Tarqatilgan energiya resurslarini qo'llab-quvvatlash. Aqlli tarmoqlar uy xo'jaliklari va korxonalarda o'rnatilgan quyosh panellari, shamol turbinalari va boshqa tarqatilgan energiya resurslarini qo'llab-quvvatlaydi. Ular ikki tomonlama energiya oqimini boshqarish, ortiqcha energiyani tarmoqqa sotish va mahalliy energiya resurslaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Tarmoqni optimallashtirish. Aqlli tarmoqlar tarmoqning ishlashini doimiy ravishda kuzatib boradi va energiya oqimini optimallashtiradi. Bu energiya yo'qotishlarini kamaytirish, tarmoqning ishonchligini oshirish va energiya resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. [8]

Talabni boshqarish. Aqlli tarmoqlar iste'molchilarni energiya iste'molini kamaytirishga undovchi talabni boshqarish dasturlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Narxlarni dinamik ravishda o'zgartirish, rag'batlantiruvchi dasturlar va energiya tejash bo'yicha maslahatlar orqali iste'molchilar energiya iste'molini kamaytirishga undaladi.

Ma'lumotlarning shaffofligi. Aqlli tarmoqlar energiya ishlab chiqarish, uzatish va iste'mol qilish haqida real vaqt rejimida ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu energiya tizimining ishlashini yaxshiroq tushunish, qaror qabul qilishni optimallashtirish va iste'molchilarni energiya tejashga undash imkonini beradi.

Ushbu kompozitsion tahlil aqlli tarmoqlarning tuzilishi va funksiyalarini yaxshiroq tushunishga hamda ularning energetika sohasidagi ahamiyatini baholashga yordam beradi. Aqlli tarmoqlar yashil energetikani energiya tizimiga integratsiya qilish uchun zarur bo'lgan texnologik asosdir. Ular qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o'zgaruvchanligini boshqarish, tarqatilgan energiya resurslarini qo'llab-quvvatlash, tarmoqni optimallashtirish va iste'molchilarni energiya tejashga undash imkoniyatini beradi. Aqlli tarmoqlarni joriy etish – energetika sohasida barqaror kelajakni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beruvchi muhim yechimdir.

O'zbekistonda aqlli tarmoqlarni joriy etish istiqbollari katta bo'lib, mamlakat energetika sohasini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, aholi sonining o'sishi va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi aqlli tarmoqlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, aqlli tarmoqlar (Smart Grids) yashil energetikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy, innovatsion hamda istiqbolli yechimi hisoblanadi. Ushbu texnologiya energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarini optimallashtirish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish, iste'molchilarni energiya tejashga undash va energiya ta'minotining ishonchligini oshirish imkonini beradi.



O'zbekiston sharoitida aqlli tarmoqlarni joriy etish – mamlakat energetika sohasini modernizatsiya qilish, energiya xavfsizligini ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim qadamdir. Aqlli tarmoqlarni joriy etishda mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish, pilot loyihalarni amalga oshirish, tarmoqni modernizatsiya qilish, mutaxassislar tayyorlash, qonunchilik bazasini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekiston energetika sohasida yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Kelajakda aqlli tarmoqlar texnologiyalari yanada rivojlanib, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va blokcheyn kabi yangi texnologiyalar bilan integratsiya qilinishi kutilmoqda. Bu esa aqlli tarmoqlarning imkoniyatlarini kengaytiradi va energetika sohasida yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Shunday ekan, aqlli tarmoqlarni rivojlantirishga investitsiya kiritish nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki ekologik jihatdan ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov, F., & Turayeva, S. (2025). Yashil energetika va aqlli tarmoqlarni boshqarishda sun'iy intellekt roli. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 57–66.
2. Momoh, J. (2012). *Smart Grid: Fundamentals and Technologies in Electricity Networks*. John Wiley & Sons.
3. Fang, X., Misra, S., Xue, G., & Yang, D. (2012). *Smart Grid – Networking, Data Management, and Business Models*. Springer.
4. Galli, S., Scaglione, A., & Gramatica, P. (2011). *Smart Grid Technologies*. Springer.
5. Gellings, C. W. (2009). The smart grid: Enabling energy efficiency and demand response. *Energy Efficiency*, 2(4), 351–368.
6. Massoud Amin, S., & Wollenberg, B. F. (2005). Toward a smart grid: Power delivery for the 21st century. *IEEE Power and Energy Magazine*, 3(5), 34–41.
7. McDaniel, P., & McLaughlin, S. (2009). Security and privacy challenges in the smart grid. *IEEE Security & Privacy*, 7(3), 75–77.
8. Lopes, J. P., Hatziaargyriou, N., Mutale, J., Djapic, P., & Jenkins, N. (2007). Integrating distributed generation into electric power systems: A review of drivers, challenges and opportunities. *Electric Power Systems Research*, 77(9), 1189–1203.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>